

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.04.2021.F.76.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

ABDULLAYEV AZIMJON ASHURVOY O'G'LI

**O'ZBEKISTON YOSHLARI FAOLIYATIDA DINIY VA DUNYOVIY
MADANIYAT UYG'UNLIGINI TA'MINLASHNING IJTIMOIIY-
FALSAFIY XUSUSIYATLARI**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Namangan – 2025

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
философским наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
Philosophical Sciences**

Abdullayev Azimjon Ashurvoy o‘g‘li

O‘zbekiston yoshlari faoliyatida diniy va dunyoviy madaniyat uyg‘unligini
ta’minlashning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari3

Абдуллаев Азимжон Ашурвой угли

Социально-философские особенности обеспечения гармонии религиозной
и светской культуры в деятельности молодежи Узбекистана.....

Abdullaev Azimjon Ashurvoy ugli

Socio-philosophical features of ensuring the harmony of religious and secular
culture in the activities of youth of Uzbekistan.....

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....29

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.04.2021.F.76.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

ABDULLAYEV AZIMJON ASHURVOY O'G'LI

**O'ZBEKISTON YOSHLARI FAOLIYATIDA DINIY VA DUNYOVIY
MADANIYAT UYG'UNLIGINI TA'MINLASHNING IJTIMOIIY-
FALSAFIY XUSUSIYATLARI**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Namangan – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B 2023.4.PhD/Fal1125 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Namangan davlat universiteti veb-sahifasida (namdu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Jo’rayev Ro’zimat To’xtasinovich
siyosiy fanlar doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

G’aniyev Baxodirjon Sodiqjanovich
falsafa fanlari doktori(DSc), v.b. professor

Ismoilov Temurbek Islomovich
pedagogika doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

**Nizomiy nomidagi Toshkent davlat
pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.04.2021.F.76.06 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “_____” _____ soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 160119, Namangan shahri, Uychi ko‘chasi, 316-uy. Tel.: (+99869) 228-85-01; faks: (+99869) 228-85-02; e-mail: info@namdu.uz).

Dissertatsiya bilan Namangan davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan.) (Manzil: 160119, Namangan shahri, Uychi ko‘chasi, 316-uy. Tel.: (+99869) 228-85-01).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «_____» _____da tarqatildi.

(2025-yil «_____» _____dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi.)

N.B.Dexkanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, siyosiy fanlar doktori (DSc), professor

Q.O.Maxkamov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

M.I.Ismoilov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertasiya mavzuning dolzarbligi va zarurati. Jahonda yuz berayotgan ijtimoi-siyosiy integratsiya, murosasizlik, o'zaro adovat, toqatsizlik va salbiy munosabatlar natijasida yuzaga kelayotgan nizolar insoniyat taraqqiyoti va tinchligiga rahna solmoqda. Bundan tashqari, hesh bir din yoki konfessiya boshqa din va mazhablarga nisbatan imtiyozga ega emas va davlat dinlar va konfessiyalar o'rtasida neytral rol o'ynaydi. "Dunyoviylik" dinni davlatdan ajratadi. Bu shuni ko'rsatadiki, dunyoning aksariyat davlatlari garshi diniy xususiyatga ega bo'lsalar ham, dunyoviy qadriyatlarni qabul qilib, bugungi globallashuv sharoitida bir yo'nalishda harakat qilmoqdalar. Bugungi kunda sayyoramizning butun aholisi ushbu globallashuv jarayonining ajralmas qismidir. Har bir inson, millati, dini va siyosiy qarashlaridan qat'i nazar, dunyoning to'la huquqli jamiyatining bir qismi bo'lish huquqiga ega. Zamonaviy dunyo jamiyatning dindorlik darajasi va sekulyarizm tendensiyalari o'rtasidagi ixtiloflar majmui sifatida yanada dolzarblidir.

Dunyoning ko'plab ilmiy tadqiqot muassasalari, tadqiqot markazlari, va professional ta'lim dargohlarida yoshlar diniy va dunyoviy madaniyat uyg'unligini ta'minlashning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati, ustuvor jihatlari ijtimoiy-falsafiy jihatdan o'rganilmoqda. Yoshlar hayoti va faoliyatini ijtimoiy-falsafiy, sotsiologik o'rganish va ularning zamonaviy muammolari yechimini topishda diniy va dunyoviylik madaniyati omilining o'rnini aniqlash bilan mavjud empirik va fundamental tadqiqotlar salmog'i ortadi. Ushbu olib borilayotgan tadqiqotlarda diniy va dunyoviy madaniy bilimlarning vujudga kelish jarayoni, yoshlarning dunyoqarashiga xos immanent va parmanent xususiyatlari ilmiy tahlil qilinib, yoshlar faoliyatida aksiologik hamda praksiologik ahamiyati, dinamik holati va rivojlanish tendensiyalari ta'sirini ilmiy nuqtai nazardan asoslab berish zarurati dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy va diniy sohalarida keng qamrovli islohotlar va kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy va diniy sohalarida keng qamrovli islohotlar va kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi 70-maqsadida "Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish" yo'nalishi belgilangan bo'lib, unda yoshlarning fuqarolik mas'uliyati va bag'rikenglik tuyg'ularini shakllantirish borasida bir qator muhim ahamiyatga ega bo'lgan vazifalar, ya'ni "Yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash, yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo'ravonlik va shafqatsizlik g'oyalaridan himoya qilish"¹, nazarda tutilgan.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2018-yil 16-apreldagi PF-5416-son "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmonlari, shuningdek, 2019-yil 8-apreldagi PF-5465-son "O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar to'g'risida" farmoyishi va O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 5-iyuldagi O'RQ-699-son "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonuni, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini takomillashtirish chora-tadbirlar to'g'risida" Qarori va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi 23-son "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori hamda mavzuga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Yoshlar faoliyatida diniylik va dunyoviylik madaniyat uyg'unligini ta'minlashga oid falsafiy tadqiqotlar asosan XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab olib borilgan bo'lsada, uning ijtimoiy-falsafiy genezisi genesologik, sotsiologik, ijtimoiy antropologik va psixologik fanlarning tadqiqot ob'ektlaridan biri bo'lib kelgan.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.Mirziyoyevning ma'ruzalari, asarlarida oshib berilgan. "Islom dini bizni ezgulik va tinshlikka, asl insoniy fazilatlarni asrab-avaylashga da'vat etadi"² deb alohida e'tirof etganlar. Bu g'oyalar ilmiy tadqiqot ishining nazariy metodologik asosini tashkil etadi.

Diniylik va dunyoviylik madaniyatini turli kontekstlarda o'rganib kelingan hamda, ushbu tadqiqot ishi bilan bog'liq ilmiy izlanishlar olib borgan olimlarni quyidagi guruhlariga bo'lib o'rgandik.

Yoshlar faoliyatida diniy va dunyoviy madaniyat uyg'unligini shakllantirish masalalari ijtimoiy hodisa sifatida, dastlab, qadimgi manbalar Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto"da insonning hissiy va aqliy olamiga kuchli ta'sir o'tkazuvchi, kishini fikrlashga davat etuvchi buyuk qadriyat³ ekanligi, inson kamolotiga oid fikrlar bilan ifoda etgan. Firdavsiyning "Shohnoma"⁴ asaridagi falsafiy mohiyatning o'ziga xos xususiyati, mutafakkir asar vositasida biror bir millat yoki jamiyat qatlamiga murojaat qilmagan, balki insoniyat sotsiumining

² Ш.М.Мирзиёев. "Инсон манфаатлари ва ҳуқуқларини таъминлаш – демократик жамият асосидир". Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутқ. Нью-Йорк шаҳри, 2017 йил 19 сентябрь.

³ Жўраев Н., Халилов Н., Бўранов М. Авесто. Тошкент, "Toshkent nashriyoti". 2021.

⁴ Firdavsiy. "Shohnoma". T.: "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi" nashriyoti. 2018

barcha qatlamlariga murojaat qilganligida ko‘rinadi. “Shohnoma” asarida tadqiqot uchun muhim bo‘lgan fikrlar aks ettirilgan.

Sharqning qomusiy olimlari Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy asarlarida insonlarda diniy va dunyoviy madaniyat masalalari ijtimoiy hodisa sifatida o‘z davri muhit va ijtimoiy-siyosiy hayotidan kelib chiqib, muammoning ijtimoiy-falsafiy, ma’naviy-ma’rifiy jihatlarini yoritganlar. Jamiyat rivojida genesologik ahamiyat kasb etuvchi ko‘plab diniy va ijtimoiy qadriyatlar uyg‘unlikda ifodalangan bo‘lib, ularning bugungi kunda ijtimoiy madaniy aloqadorligi yetarlicha tadqiq etilmagani mavzu dolzarbligini belgilab beradi.

Abu Nasr Forobiy inson ma’naviy-axloqiy fazilatlarini kamol toptirish haqida quyidagi fikrlarni ilgari suradi: “Inson fazilatlar bilan kamolotga yetadi va kamolotga yetgan odam baxtli hisoblanadi”⁵. Abu Rayhon Beruniy inson hayotiga daxl qiluvchi xavf-xatarlar haqida fikr yurita turib, ular ko‘p hollarda yovuz niyatda qilinishini qayd etgan⁶. Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, “Hindiston” va “Minerologiya” asarlarida yoshlar tarbiyasi, xalqlarning urf-odatlarida din hamda diniy e’tiqod masalalariga alohida e’tobor qaratgan. Ibn Sinoning “Donishnoma” asarida dunyoviy bilimlarning kishilar turmush-tarziga ta’siri kata bo‘lib, Ibn Sino xavf-xatarlarni bartaraf etishda tarbiya omiliga tayanishni ta’kidlaydi⁷. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”⁸da ifodalangan ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma’rifiy qarashlarda yoshlar diniy va dunyoviy madaniyati ijtimoiy qadriyatlar hamda xalqalar madaniyati genezisiga doir muhim diniy-didaktik manba sifatida keltirishimiz mumkin. Alisher Navoiyning “Xamsa”⁹ asarining hamd, munojot va na’t qismlari diniy-ma’rifiy va falsafiy-irfoniy g‘oyalarni yuksak darajada badiiy talqin etgani asarlarining tahlili orqali dalillanadi.

Islom dini rivojiga munosib hissa qo‘shgan muhaddis olimlar Imom Ismoil al-Buxoriy, Imom Iso at-Termiziy, Imom G‘azzoliy, Ahmad Yassaviy kabi olimlarning asarlarida o‘z aksini topgan musulmon madaniyati, ilm-fan, falsafaning olamshumul yutuqlari ilmiy va diniy qadriyatlar masalasini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, Imom Buxoriy o‘zining “Al adab, al mufrad” asarida “Bolaning tabiati islomiy bo‘ladi, uni qanday g‘oyalar bilan to‘ldirish ota-ona va ustozga bog‘liq”¹⁰ deydi. Shuningdek, Imom G‘azzoliy haqiqatan ham o‘z asarlarida an’anaviy (tradisional), aqliy (rasionalistik) va mistik elementlarni uyg‘unlashtirib, islomni yana uyg‘otdi. G‘azzoliyning “Tavba”¹¹ asarida diniy qunyoqarashning xalqlar ijimoiy madaniyatidagi ahamiyati alohida to‘xtalgan. Ahmad Yassaviy yoshlarga murojaat qilib, bilim egallash oson

⁵ Абу Наср Форобий. Фазилат, бахт-саодат ва камолот ҳақида. – Тошкент: Ёзувчи, 2001. – Б. 38.

⁶ Абу Райҳон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. – Тошкент: Фан, 1972. – Б. 68.

⁷ Абу Али Ибн Сина. Избранные философские произведения. – Москва: Наука, 1980. – С. 43.

⁸ Равшанов Ф. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг (Саодатга элтувчи билим). – Тошкент.: «Академнашр», 2015. – 544 б

⁹ Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. /To‘la asarlar to‘plami. O‘n jildlik. Oltinchi jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2013.

¹⁰ Имом ал-Бухорий. Ал-адаб ал-муфрад. – Тошкент: Мовароуннахр, 2005. – Б. 16.

¹¹ Imom G‘azzoliy. Tavba. – Toshkent: Fan, 2019. – B. 278.

emasligini, buning uchun esa yillar davomida har qanday qiyinchiligu mashaqqatlarga qaramasdan tinmay izlanish va o'z ustida qunt bilan ishlash kishidan irodali bo'lishni talab qiladi. "Hikmatlar"¹² asaridagi ilm va aqliy tarbiyaga doir fikrlarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Qadimda yunon faylasuflari Platon, Aristotel¹³ yangi davr faylasuflari R.Dekart, I.Kant, Gegel, E.Taylor¹⁴ asarlarida yoshlar, din, madaniyat bo'yicha mifologik, teologik, gnoseologik va ilmiy-falsafiy masalalariga oid fundamental fikrlar bayon etilgan. Shuningdek, kishilardagi tolerantlik, diniylik va dunyoviylik bo'yicha Jon Lokk, Tomas Gobbs, E.Toffler, Volter¹⁵ va boshqalarning tadqiqotlari turli davrlarda yaratilgan, ba'zilar antik tafakkurni ifoda etsa-da, ular hozir xam, ilmiy metodologik nuqtai-nazardan, muammoni ob'ektiv o'rganishga yordam beradi. o'z asarlarida ilmiy asoslashga harakat qilganlar. Jumladan, diniy ta'lim tizimi tarixiy, falsafiy, sotsiologik nuqtai nazardan Bjezinskiy, E.Giddens, M.Sasaki va S. Xantington¹⁶ asarlarida globallashuv jarayonlarining ijtimoiy-siyosiy va diniy jihatlari, yoshlar tarbiyasi va ta'limiga oid tendensiyalar tadqiq etilgan bo'lib tadqiqot ishini yoritishda muhim manbalardan hissoblandi. AQShlik tadqiqotchi Samuel Xantington ham o'zining "Sivilizatsiyalar to'qnashuvi" asarida butun insoniyatni ogohlantirib, "Turli xil dinlarga e'tiqod qiluvchi rivojlangan davlatlar to'qnashadi" – deya, ta'kidlagan edi. Darhaqiqat, ayrim mintaqalarda turli xil dinlarga e'tiqod qiluvchi xalqlar orasida ijtimoiy-siyosiy kuchlar o'zlarining geosiyosiy maqsadlarini ko'zlab, nizo va kelishmovchiliklarni keltirib chiqarishda dindan xususan, missionerlik va prozelitizm harakatlaridan foydalanishayotganligi bejiz emas.

Yoshlar faoliyatida diniy va dunyoviy madaniyat uyg'unligini ta'minlashning ijtimoiy-falsafiy tendensiyalarini MDH olimlari dunyoviy va diniy munosabat, diniy-ijtimoiy tarbiya xususiyatlarini ochib berish zaruriati bo'yicha muayyan tadqiqotlar olib borishgan. Dinning madaniyatga ta'siri, diniy va dunyoviy ongning transformatsiyasini o'rganishga alohida e'tibor qaratgan. B.Ledvitz, N.Baybatirova, L.Intimakova, A.Enshteyn, A.Tokarev¹⁷lar tomonidan dinning madaniy, tarixiy, falsafiy jihatlari yoritilgan.

¹² Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991.

¹³ Платон. Сочинения в четырех томах. Том 3. Часть 1. – СПб: Издательство Санкт-Петербургского университета, 2006. -752 с.; Аристотель. Политика. Риторика. – Москва: "Эсмо", 2019. – 300 с.;

¹⁴ Декарт Р. Сочинения в двух томах. Том 1.-Москва: Мысль, 1989. С. 79.; Кант И. Религия в пределах только разума. Сочинения в восьми томах. Том 6.-Москва: Мысль, 1994; Гегель. Философия религии в двух томах. Том 1.-Москва: Мысль, 1976. С. 253; Тайлор Э.Б. Первобытная культура. - Москва: Политиздат, 1989. С.7- 8;

¹⁵ Джон Локк. Сочинения в 3-х т. –М.: Мисл, 1985. Т.3. -412 с.; Гоббс Т. Избранные произведения. В 3-х т. – М.: Мисл, 1991. Т.1. -299 с.; E.Toffler. Uchinchi to'liq. (Rus tilida). –М.: ООО "АСТ", 1990; Герберт Меркузе. К ситуации новых левых (Реч, произнесённая Г.Маркузе 4 декабря 1968 года в Нью-Ёрке по случаю двадцатилетнего юбилея Американского журнала The Guardian [https:// Labandovaga.antifa.net](https://Labandovaga.antifa.net). Perevod Derevyanchenko E.A., 2006).

¹⁶ Бжезинский З. Великая шахматная доска (Господство Америки и его геостратегические императивы) Перевод О.Ю. Уральской. – М.: Международные отношения, 1998. – С. 254.; Giddens A. Runaway world: How Globalisation is Reshaping Our Live. – Ntw York .Routliege. 2000. – P. 104.; Хантингтон Самюэль. Столкновение цивилизаций. пер. санг. - М.: АСТ, 2014. - 571 с.

¹⁷ Курилов В. Советская модель секуляризации: политическое и правовое регулирование свободы совести в СССР (вторая половина XX века): религиоведческий анализ: дисс. ... канд. филос. наук. Специальность 09. 00.14. – Санкт-Петербург, 2018. – С. 198. ; Bruce Ledewitz. Hallowed Secularism Theory, Belief, Practice. Palgrave Macmillan. –New York., 2009.– P. 211.; Байбатырова Н. Отражение процессов исламизации и

Yurtimizdagi dinshunos olimlar, faylasuflar, tarixchi, etnolog va sotsiologlar tomonidan din va diniy madaniyatning ijtimoiy mohiyati, shakllanishi qonuniyatlariga doir qator ilmiy-falsafiy mulohazalar ilgari surilgan. Bu mulohazalar turli munosabatlar bilan, turfa masalalar kontekstida bayon etiladi.

Yurtimiz faylasuf olimlaridan tasavvuf falsafasining mohiyati va diniy tafakkurga ta'siri yuzasidan N.Komilov, dunyoviy bilimlarning diniy bilimlarning mohiyatini anglashdagi rolini T.Karim, jahon dinlaridagi bag'rikenglik g'oyalarining hozirgi ahamiyatini U.Qo'shayev shuningdek, globallashuv jarayonlarida din omilining radikallashuvini K.Komilov¹⁸lar ochib berishgan. Zamonamizning yetuk olimlaridan mamlakatimizda Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, U.Alimov, A.Mansurlar tomonidan yoshlar ta'lim-tarbiyasi, diniy va dunyoviy madaniyatini zamonaviy shaxs tarbiyasidagi o'rni va ahamiyati tahlil qilingan.

Mamlakatimizda yoshlar ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini yuksaltirishda diniy va dunyoviy madaniyat uyg'unligini o'ziga xos ko'rinishlarining namoyon bo'lishini dialektik xususiyatlari hamda millatlar va millatlararo munosabatlar mohiyatini ochib berishga qaratilgan tadqiqotlar S.Otamurodov, I.Saifnazarov, N.Jo'rayev, Q.Nazarov, I.Ergashev tomonidan amalga oshirilgan. Shuningdek, O.Musayev, B.Boboyorov, N.Nazarov kabi tadqiqotchi olimlar tomonidan millatlar va millatlararo munosabatlar masalalari tadqiq etilgan. Milliy mentalitetni rivojlantirish va destruktiv g'oyalar hamda millatlararo munosabat va xulq-atvor, ma'naviy-mafkuraviy jarayonlar bilan bog'liq xususiyatlar S.Choriyev, M.Xajiyeva, A.Sharipov tadqiqotlarida ko'rib chiqilgan¹⁹.

Shuningdek, so'ngi yillarda faylasuf tadqiqotchilar Z. Isaqova tomonidan X-XIII-asrlarda Sharq falsafiy tafakkuri rivojida irfon muammosining falsafiy asoslarini ontologik, epistemologik, antropologik, aksiologik qiyosiy jihatdan ochib berilgan²⁰ bo'lsa, A.A. Qambarov, N.SH. Xudaynazarov, J.SH. Jumayev,

секуляризации турецкого общества в прессе // Вестник СПбГУ. 2010. № 9.; Интымакова Л. Проблема мифологизации и секуляризации сознания в современном обществе // «Концепт», 2013. № 7. – С. 36-40.; Эпштейн А. Секуляризация и ее пределы: самосознание и свобода совести в эпоху конфликта цивилизаций // Вестник МГТУ им. Шолохова, 2015. № 4. – С. 92-96.; Токарев А. Секуляризация как социальная форма десакрализации и рационализации духовной жизни (западноевропейский контекст): Автореф. дисс. ... канд. Филос. наук. – Нижний Новгород, 2008. – С. 185.

¹⁸ Комилов Н. Тасаввуф ёки комил инсон ахлоқи. – Т.: Ёзувчи. 1996.; Карим Т. Дунёвийлик фалсафаси. Тўплам. – Тошкент: Чўлпон, 2007.– Б. 28.; Кушаев У.Р. Жаҳон динларида бағрикенглик ғояларининг уйғунлиги: Фал. фан. д-ри. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2017.; Комилов К. Глобаллашув ва диний жараёнлар. – Тошкент: Мовороуннахр, 2014. – Б. 128.

¹⁹ Отамуродов С. Глобаллашув: миллатни асраш масъулияти. –Тошкент: «Ўзбекистон», 2018. -356 б; Соифназаров И. Ёшларда бағрикенглик дунёқарашини шакллантиришнинг омиллари // Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари илмий-маърифий журнал. –Тошкент: 2018. №2. -Б.46.; Жўраев Н. Тамаддунга даъват тараққиёт стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – 264 б.; Назаров Қ. Ғоялар фалсафаси. –Тошкент: Академия, 2011. - Б. 127.; Ergashev I. Milliy qadriyatlar: yoshlar, zamon va kelajak // Falsafa va huquq. – Toshkent: 2006. -№ 1. –В. 49.; Мусаев О. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатларни ривожлантиришнинг ижтимоий-фалсафий хусусиятлари. Фалс.фан.док.дисс. автореф. - Тошкент: 2017. -59 б; Бобоёров Б Н. Жамият демократлашувида миллатлараро муносабатларни такомиллаштиришнинг ижтимоий-фалсафий таҳлили. Фалс.фанл.б.ф.д. (PhD) дисс. автореф. –Тошкент: 2019.– 46 б; Назаров Н.А. Марказий Осиё полиетник социумида миллатлараро муносабатлар такомиллашувининг фалсафий-функционал тадқиқи. Фалс. фанл. док. дисс. автореф. –Тошкент: 2019. – 58 б;

²⁰ Исакова З.Р. Ирфон ва унинг Шарқ фалсафий тафаккури ривождаги ўрни (X-XIII АСРЛАР) 09.00.03 – Фал.фан.доктори (DSc). дисс.автореф. Самарқанд – 2022. – Б. 72

A.H. Ulug'ov, A.A. Aripov, A.N. Mamirov hamda I.M. Xoliqov²¹lar so'ngi yillarda diniy ta'lim, diniy va madaniy an'analarning birligi va ijtimoiy hamkorlikda namoyon bo'lishini ochib berganlar.

Yuqoridagi tadqiqotlarning o'rganilganlik darajasi shuni ko'rsatdiki, Yangi O'zbekiston yoshlari faoliyatida diniy va dunyoviy madaniyat shakllantirish va rivojlantirish va ilmiy rivojlantirish omillarini kengaytirish, mazkur sohaga innovatsion g'oyalarni tadbiq etish orqali ma'naviy-mafkuraviy va ijtimoiy-madaniy islohotlarning mazmun-mohiyatini milliy taraqqiyot modeli negizida takomillashtirish, yoshlarda milliy o'zlikni anglash, qadriyatlarga sodiqlik kabi fazilatlarni jamiyat ma'naviy hayotiga singdirish va o'rganishga qaratilgan dolzarb ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Mavjud ilmiy adabiyotlar va izlanishlar tahlili shuni ko'rsatdiki, global ijtimoiy-madaniy jarayonlarda turli soha olimlari tomonidan yoshlar faoliyatida diniy va dunyoviy madaniyat uyg'unligini ta'minlash yuzasidan tizimli tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Namangan davlat universiteti ilmiy-tadqiqot rejasining "Yangi O'zbekistonda jamiyat taraqqiyotini ta'minlashning siyosiy va ijtimoiy-falsafiy jihatlarini tadqiq etish (2021-2024)" mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston yoshlari faoliyatida diniy va dunyoviy madaniyat uyg'unligini ta'minlashning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Diniy va dunyoviy madaniyat uyg'unligi namoyon bo'lishining ijtimoiy falsafiy tadqiqotlar obyekti sifatida ochib berish;

Diniy va dunyoviy madaniyatning tarixiy genezisi, fenomenologik mohiyati va uyg'unligini ta'minlashni konseptual asoslash;

Millatlararo va dinlararo nizolarni oldini olishda dunyoviy madaniyatning o'rni ekanligini qiyosiy o'rganish;

Ijtimoiy davlatda vijdon erkinligini ta'minlashning transmilliy modellari: ilmiy-konseptual tahlil qilish;

Diniy va dunyoviy madaniyat dialektikasining shaxs, jamiyat va davlatning milliy xavfsizligini ta'minlashdagi o'rni aksiologik jihatlarini asoslash;

²¹ Qambarov A.A. O'zbekistonda ilmiy va diniy qadriyatlar transformatsiyasining ijtimoiy-falsafiy tahlili. Fal.fan.DSc.diss. avtoref. – Andijon: 2023. – 71 b.; Xudaynazarov N.Sh. O'quvchi yoshlarda ilmiy va diniy tafakkurni shakllantirishning ijtimoiy differensial xususiyatlari. fal.fan.b.f.d (PhD) diss.avtoref. –Samarqand; 2023. – 47 b.; Jumayev J.Sh. O'zbekiston ma'naviy taraqqiyotida diniy tafakkur evolyutsiyasining ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari. fal.fan.b.f.d (PhD) diss.avtoref. –Samarqand; 2023. – 47 b.; Ulug'ov A.H. Yoshlar ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini yuksaltirishda bag'rikenglik madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari. siyosiy.fan.b.f.d (PhD) diss.avtoref. –Toshkent; 2023. – 47 b.; Aripov A.A. Yoshlar ma'naviy xavfsizligini ta'minlashda bag'rikenglik fenomenini yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari. fal.fan.b.f.d (PhD) diss.avtoref. –Samarqand; 2023. – 48 b.; Mamirov. A.N. Yoshlarda tolerant dunyoqarashni shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy asoslari. fal.fan.b.f.d (PhD) diss.avtoref. –Toshkent; 2023. – 48 b.; Xoliqov I.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida millatlar va millatlararo munosabatlar rivoji. fal.fan.b.f.d (PhD) diss.avtoref. –Buxoro; 2023. – 56 b.

Zamonaviy o'zbek jamiyatida yoshlarining diniy va dunyoviy ma'rifat tuyg'usi hamda uning ijtimoiy-madaniy hayotidagi praksiologik xususiyatlari ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning obykti sifatida O'zbekiston yoshlarida diniy va dunyoviy madaniyat uyg'unligini ta'minlash jarayonlar tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini yoshlarda diniy va dunyoviy madaniyat uyg'unligini ta'minlashga oid ijtimoiy jarayonlarning ijtimoiy-falsafiy asoslari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari: umumiy o'zaro aloqadorlik, tarixiylik, tizimlilik tamoyillari, gipotetik deduktiv, anketali so'rov usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy barqarorligini ta'minlashda yoshlar hayotiy faoliyatidagi ekzogen (ijtimoiy me'yor) va endogen (ijtimoiy ruhiyat) omillar konfessional va nokonfessional jarayonlar uyg'unligini ta'minlovchi paradigma ekanligi aniqlangan;

zamonaviy o'zbek jamiyatida diniylik va dunyoviy madaniyatidagi ma'naviy muvofiqlik, madaniy an'analarning aksiologik faoliyat bilan optimal uyg'unligini ta'minlash, ijtimoiy davlatning barqarorlik belgisi ekanligi ilmiy asoslangan;

yoshlar faoliyatida diniylik va dunyoviylik madaniyatining uyg'unligini ta'minlashda, "ma'rifatli avlod" ni shakllantirish dunyoviylik va diniylikning muhim algoritmi bo'lmish ma'naviy o'zlikni anglash plyuralistik jamiyatning shakllanishiga olib keluvchi ratsional yechim sifatida jamiyatda miqdor o'zgarishidan sifat o'zgarishiga olib keluvchi ijtimoiy kapital ekanligi falsafiy ochib berilgan;

yoshlar o'rtasida "diniylik" va "dunyoviylik" fenomeni o'zbek milliy identitetligi xususiyatidan kelib chiqib – ijtimoiy munosabatlarda falsafiy (bag'rikenglik, tolerantlik, toqatlik) komponentlar yoshlar ma'naviy olamini yaxlitlovchi indikator ekanligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Diniy va dunyoviy madaniyat uyg'unligini rivojlanish omillari yuzasidan ilmiy xulosalar ishlab chiqilgan;

Jamiyatda diniy va dunyoviy madaniyat uyg'unligi transformatsiyasidagi zamonaviy tendensiyalari tadqiq qilinib, mustaqil tavsiyalar ishlab chiqilgan;

Globallashuv davrida yoshlar diniy va dunyoviy madaniyat uyg'unligini yuksaltirish omillari hamda shart-sharoitlari hamda uning innovatsion yo'llarini takomillashtirish mexanizmlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallari to'plamlari, OAK ro'yxatidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, ularda muallif tomonidan ilgari surilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, unda yoritilgan fikr-mulohaza va xulosalardan oliy o'quv yurtlarida bakalavr, magistratura bosqichida o'tiladigan "Ijtimoiy falsafa",

“Madaniyat falsafasi”, “Axborotlashgan jamiyat taraqqiyotining falsafiy tahlili”, “Mediasavodxonlik”, “Estetika” va boshqa shu kabi fanlar hamda kurslarning tegishli ma’ruzalarini yangi pedagogik texnologiyalar bilan o’qitishda foydalanish mumkin.

Dissertasiyaning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, unda ilgari surilgan nazariy-falsafiy g’oyalardan, umumlashtirilgan ilmiy xulosalardan ijtimoiy gumanitar fanlar nazariyasi va amaliyoti bo’yicha o’tkaziladigan darslarda foydalanish mumkin. Ilmiy xulosalardan falsafa, madaniyatshunoslik fanlar bo’yicha darslik, o’quv qo’llanma, uslubiy tavsiyalar tayyorlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertasiyaning ilmiy xulosalari va amaliy tavsiyalaridan O’zbekiston yoshlarida diniy va dunyoviy madaniyat uyg’unligini ta’minlashga bag’ishlangan istiqbolli, maqsadli dasturlar va konsepsiyalarni ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O’zbekiston yoshlari faoliyatida diniy va dunyoviy madaniyat uyg’unligini ta’minlashning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari tadqiqotimizdan ishlab chiqilgan ilmiy natijalar asosida:

jamiyatning ijtimoiy-ma’naviy barqarorligigini ta’minlash, yoshlar hayotiy faoliyatidagi ijtimoiy me’yor va ijtimoiy ruhiyat omillarning konfessional va nokonfessional jarayonlar bilan bog’liqligiga oid taklif va tavsiyalaridan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining 2023-2024-yillarda o’tkazilgan targ’ibot faoliyatida tatbiq etilgan. Jumladan, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining 2023-yil uchun chora tadbirlar dasturining VI yo’nalishida belgilangan "Millatlararo totuvlik va dinlararo bag’rikenglik bo’yicha targ’ibot-tashviqot tadbirlari, aholi o’rtasida radikalizm illatini oldini olish" 28-bandi "Aholi, ayniqsa yoshlar orasida radikal kayfiyatlarni uyg’otishga, axloqsizlikni yoyishga qaratilgan buzg’unchi g’oyalarga qarshi samarali targ’ibot ishlarini tashkil etish" mavzusida targ’ibot ishlarini o’tkazishda dissertatsiya materiallaridan (Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi ijtimoiy – ma’naviy tadqiqotlar markazining 2024-yil 27-iyuldagi 330-son ma’lumotnomasi) foydalanilgan. Natijada, O’zbekiston yoshlari faoliyatida dini va dunyoviy madaniyat uyg’unligini ta’minlashning ijtimoiy -falsafiy jihatlarini tahlil etish va ga xizmat qilgan;

zamonaviy o’zbek jamiyatida diniylik va dunyoviy madaniyatidagi ma’naviy muvofiqlik, madaniy an’analarning aksiologik faoliyat bilan optimal uyg’unligini ta’minlashga doir taklif va tavsiyalaridan O’zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O’zbekiston” teleradiokanalining 2024-yil yanvar va may oylarida efirga uzatilgan “Ta’lim va taraqqiyo”, “O’zbekiston yoshlari” “Millat va ma’naviyat” dasturlari va senariylarni ishlab chiqish (O’zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O’zbekiston” teleradiokanalining 2024-yil 25-iyuldagi 04-36-879-son dalolatnomasi) foydalanildi. Natijada, “Ta’lim va taraqqiyot”, “O’zbekiston yoshlari”, “Millat va ma’naviyat” dasturlarining senariylarini tayyorlashga hamda ijtimoiy davlatning barqarorlik omillarini ochib berishga xizmat qilgan;

yoshlar faoliyatida diniylik va dunyoviylik madaniyatining uyg’unligini ta’minlashda, “ma’rifatli avlod” ni shakllantirish dunyoviylik va diniylikning

muhim algoritmi bo'lmish ma'naviy o'zlikni anglashga oid ilmiy xulosa va tavsiyalaridan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2023-2024-yillarda o'tkazilgan targ'ibot faoliyatida tatbiq etilgan. Jumladan, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2023-yil uchun chora tadbirlar dasturining VI yo'nalishida belgilangan "Millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik bo'yicha targ'ibot-tashviqot tadbirlari, aholi o'rtasida radikalizm illatini oldini olish" 28-bandli "Aholi, ayniqsa yoshlar orasida radikal kayfiyatlarni uyg'otishga, axloqsizlikni yoyishga qaratilgan buzg'unchi g'oyalarga qarshi samarali targ'ibot ishlarini tashkil etish" mavzusida targ'ibot tadbirini o'tkazishda (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi ijtimoiy – ma'naviy tadqiqotlar markazining 2024-yil 27-iyuldagi 330-son ma'lumotnomasi) foydalanilgan. Natijada, plyuralistik jamiyatning shakllanishiga olib keluvchi ratsional g'oyalarni takomillashtiriga hamda O'zbekiston yoshlari faoliyatida dini va dunyoviy madaniyat uyg'unligini ta'minlashning ijtimoiy -falsafiy jihatlarini tahlil etishga xizmat qilgan;

yoshlar o'rtasida "diniylik" va "dunyoviylik" fenomeni o'zbek milliy identitetligi xususiyatidan kelib chiqib – ijtimoiy munosabatlarda falsafiy (bag'rikenglik, tolerantlik, toqatlik) komponentlar yoshlar ma'naviy olamini yaxlitlovchi indikator sifatidagi taklif va tavsiyalaridan O'zbekiston Xalq demokratik partiyasining saylovoldi dasturining "jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash" qismining asosiy ustivor yo'nalishlarini ishlab (O'zbekiston Xalq demokratik partiyasining 2024-yil 11-noyabrda 1-470-son dalolatnomasi) foydalanilgan. Natijada, ijtimoiy munosabatlarda falsafiy (bag'rikenglik, tolerantlik, toqatlik) komponentlarni rivojlantirish orqali yoshlar ma'naviy olamini yaxlitlovchi indikatorlarni ishlab chiqishga xizmat qilgan

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida ma'ruza ko'rinishida bayon etilgan hamda aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yisha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini shop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 6 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, ushta bob, to'qqizta paragraf, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 146 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish bo'limida mavzuning muhimligi va zaruriyati, masalaning o'rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi, tadqiqotning milliy fan va texnologiyalarning asosiy ustivor yo'nalishlariga bog'liqligi, ob'ekti, predmeti, usullari, maqsadi va vazifalari aniqlangan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilganligi, aprobatsiyasi, chop etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Diniy va dunyoviy madaniyat uyg'unligini rivojlanish omillarini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida Bugungi kunda axborotlashuv jarayonlarining konstruktiv va destruktiv omillariga birdek javob bera oladigan, tarix saboqlaridan to'g'ri anglab

mantiqan yondashgan holda xulosa chiqara oladigan, yoshlarni ilmiy-diniy ongi, yoshlarda diniy va dunyoviy madaniyat uyg'unligini ta'minlashning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari bilan uyg'unlashtirgan ko'p qirrali yondashuvlar nazariy-metodologik jihatdan tadqiq etilgan.

Bugungi kunda yoshlarda diniy va dunyoviy madaniyat uyg'unligini tahlil qilishga qaratilgan bir nechta ilmiy markazlar, dastur va loyihalar faoliyat yuritadi. Shuningdek, jamiyatda yoshlarda diniy va dunyoviy madaniyatni shakllanishi va genezisi, evolyutsiyasi, ijtimoiy-falsafiy xususiyati va fenomenologik mohiyati va uyg'unligini ta'minlashning konseptual asoslari bilan o'zaro aloqadorligi ilmiy tahlili ko'rsatib berilgan. Ushbu bobning "Diniy va dunyoviy uyg'unlik namoyon bo'lishining ijtimoiy falsafiy tadqiqotlar ob'yekti sifatida" deb nomlangan birinchi paragrafida dissertant "din", "diniylik", "dunyoviylik" va "diniy madaniyat" kabi tushunchalarni ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil etib o'tadi.

"Din" haqida turli nazariyalar va tushunchalar mavjud, va ularning har biri diniy, falsafiy, ilmiy yoki insonlararo ravishda ko'rsatiladi. Teologik, falsafiy, sotsiologik, tarixiy, psixologik va ilmiy nazariyalarning har biri, dinning o'ziga xos jihatlarini va mohiyatini tushunishga yordam beradi va insonlarga diniy tajribalarni tahlil qilish va tushunishga yordam beradi. "Din" atamasi tarixiy rivojlanishida oldindan chiqib, turli ma'nolarda va kontekstlarda ishlatilgan. Din atamasi turli madaniyatlarda, diniy tizimlarda, falsafiy va ilmiy muhiti o'zgartirish, rivojlanish va tafsilotlarda o'zgargan. Shuningdek, din atamasi tarixiy rivojlanishida, turli falsafiy, ilmiy va ijtimoiy tasavvurlar, tushunchalar va nazariyalar bilan bog'liq ravishda o'zgarib, rivojlandi. Bu o'zgarishlar dinning tushunchalarini va ma'nolarni tushunishimizga yordam beradi va dinning jamiyatda o'z o'rnini o'zlashtirishga yordam beradi.

Falsafiy lug'atlarda, "Din"(arab. – ishonch, ishonmoq) – borliqni yaratuvchi va boshqaruvchi, adolatning yuksak namunasi, moddiy olamga xos bo'lmagan, va ayni vaqtda barkamollikning oliy ko'rinishi sifatida tushuniluvchi oliy mavjudodga, ya'ni Xudoga nisbatan munosabat, tasavvur, urf-odat va marosimlar majmuidir²². Falsafiy lug'atlarda "din" atamasi odatda insoniy faoliyatning ma'naviy, ruhiy yoki ilohiy jihatlarini ta'kidlaydi va insonning dunyoqarashi, ijtimoiy munosabatlari, maqsadi va manzilini belgilashda o'rin oladi. Bu ta'riflar dinning mohiyatini tushunish uchun yordam beradi va turli asoslarda fikr yuritishda yordam beradi.

Sharq va G'arbda diniy va dunyoviy madaniyat masalasi, ilm-fan va dinning zamonaviy jamiyatdagi ahamiyati, o'zaro aloqadorligi va dialektikasi, yoshlar faoliyati va dunyoqarashida diniy va dunyoviy madaniyat uyg'unligi, tendensiyalar dolzarblik kasb etadi. Dinning mohiyatini tushuntirishga dunyoviy bilim va nazariyalar bilan J.Lokk, J.Jak Russo, A.Golbax va I.Kantlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarni ko'rishimiz mumkin. Sotsiologlar M.Veber, O.Kont va E.Dyurgeyim²³lar dinning ijtimoiy mohiyati, jamiyatda diniy e'tiqodning

²² Назаров Қ. Фалсафа қомусий луғат. –Тошкент: «Шарқ», 2004. – Б.112

²³ Ushbu mualliflar asarlari dissertatsiyaning "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati" da berilgan

kompensatorlik, komunikativlik funksiyalari sotsiologik tadqiqotlarining obe'kti bo'lgan.

G'arblik tadqiqotchilar Palmer, Douglas, S.Lamb, G.Angeles, Gavira, P.Frances²⁴ kabi olimlar diniy tafakkur elementlarini dastlabki neandertallardagi dafn marosimlarining shakllanishi bilan bog'lab o'rganilgan tadqiqotlarni ko'rishimiz mumkin. Insoniyat ongida diniy tafakkur taraqqiyotini rivojlanib borishi yuzasidan Lewis Wolpert, Robin Dunbar hamda Stephen Jay Gould²⁵lar hamda Dávid-Barrett Tamás, Carney James²⁶lar diniy-falsafiy tafakkur evoyutsiyasini insondagi psixologik mexanizm bilan bog'lab, e'tiqod-xohish-maqсад kabi his-tuyg'ular zahirida dastlabki jamoaviy e'tiqod kelib chiqqanligini e'tirof etishadi.

Diniy bilimlar genezisi, ilmiy adabiyotlarda ko'p marta qayd etilganidek, ilk mifoteologik tasavvurlar-animistik, totemistik, magik, fetishistik, antropomistik qarashlarga borib taqaladi. Diniy – falsafiy qarashlaridagi yangi g'oyalarning sifati va chuqurligini ochib berish, uning tarixiy ketma-ketligida asoslashni nazarda tutadigan maxsus kategoriya tizimini ishlab chiqishni talab qiladi. Bu tadqiqot hozirgi falsafiy muammolar bilan bilvosita bog'liq bo'lib, tadqiqot mavzuining umuminsoniy xarakterini, diniy va dunyoviy madaniyatning falsafiy xususiyatlarida namoyon bo'lishini nazarda tutadi.

Diniy madaniyat elementlari, tushunchalari, diniy dunyoqarash bo'yicha zamonaviy xorijiy tadqiqotlarda diniy madaniyat evolyutsiyasi va tahliliga bag'ishlangan ilmiy izlanishlarga e'tibor qaratdik. Xususan, Rappaport Roy²⁷ diniy madaniyat vujudga kelishini bevosita diniy marosim va an'analarning shakllanishi bilan bo'lab tadqiq etagan bo'lsa, diniy-falsafiy tafakkur evoyutsiyasini insondagi psixologik mexanizm bilan bog'lab, e'tiqod-xohish-maqсад kabi his-tuyg'ular zahirida dastlabki jamoaviy e'tiqod kelib chiqqanligini David-Barrett Tamas, Carney James²⁸ e'tirof etishadi.

Diniy va dunyoviy mafkuralar o'rtasidagi munosabatning o'ziga xosligi ularning rivojlanish yo'nalishlariga, xususiyatlariga ta'sir ko'rsatgan. Yangi davrgacha diniy dunyoqarash jamiyat tarixida hukmron mavqeni egallab kelgan, dunyoviylik tamoyilini o'ziga bo'ysundirishga uringan, ya'ni diniylikka xizmat qiluvchi yoki unga zarar yetkazmaydigan dunyoviylik qarashlarigagina yo'l qo'ygan. Bu sharoitda dunyoviylik qarashlari turli shakllarda o'zligini namoyon qilishga uringan, goh ochiq, goh yashirin tarzda o'zini himoya qilgan²⁹. Faylasuf Z.Isaqova o'zining tadqiqotida "irfoniylik va dunyoviylikning uyg'unligi tamoyilini ta'lim tizimi modernizatsiyasiga yo'naltirish orqali sog'lom ijtimoiy muhitni yaratish kontseptsiyasi asosida yoshlarning plyuralistik yondashuvini

²⁴ Ushbu mualliflar asarlari dissertatsiyaning "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati" da berilgan

²⁵ Ushbu mualliflar asarlari dissertatsiyaning "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati" da berilgan

²⁶ Ushbu mualliflar asarlari dissertatsiyaning "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati" da berilgan

²⁷ Rappaport Roy. Ritual and religion in the making of humanity. Cambridge, UK New York: Cambridge University Press. 1999.

²⁸ Dávid-Barrett Tamás, Carney, James. The deification of historical figures and the emergence of priesthoods as a solution to a network coordination problem. Religion, Brain, Behavior. 2015. –P.307-317.

²⁹ S.A.Saidova. O'zbekiston yoshlarining ijtimoiy-siyosiy hayotida din omilining ta'siri. 23.00.02 – "Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar" Siyosiy fanlar doktori (DSc) diss. avtoref. Toshkent – 2024. –B

mustahkamlash, mustaqil fikrlashga yo‘naltirish, irodasini chiniqtirishi, tafakkurini yuksaltirishi, dunyo xalqlari ilg‘or madaniyatini tanqidiy o‘zlashtirishi yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan”³⁰ bo‘lib, dunyoviylik va uning uyg‘unligi jamiyatda din va davlat, shuningdek, shaxsiy va ijtimoiy hayot o‘rtasidagi muvozanatni ta‘minlashga qaratilgan.

Tadqiqot davomida o‘rganilgan nazariyalar va falsafiy tadqiqotlardan shuni aytish mumkinki, yoshlar faoliyatida diniylik va dunyoviylik o‘rtasidagi aniq ko‘nikmalarning shakllanmaganligi bag‘rikenglik va tolerantlik madaniyatini ta‘minlashga to‘sqinlik qilishi mumkin. Dunyoviylik va diniylik tushunchalari juda muhim bo‘lib, ular qotib qolgan nazariy paradigma emas – u zamon, davr, konkret ijtimoiy-siyosiy vaziyat taqozosi bilan o‘zgarib boradi, transformatsiya va modernizatsiyaga uchraydi.

Jamiyatda “dunyoviylik” va “dindorlik” ning o‘zaro muvozanatini “davlat – fuqarolik jamiyati – shaxs” uchligi doirasida “dunyoviy” va diniy ko‘rsatmalarning tengligi bilan o‘lchash mumkin. Ular jamiyatda qadriyatlar va imkoniyatlar muvozanatini shakllantirib rivojlanishda muhim ahamiyat kasb etadi. Markaziy Osiyoda islom dini shaxs ijtimoiylashuvida muhim o‘rin egallamoqda. Shuningdek, jamiyatda sodir bo‘layotgan ijtimoiy o‘zgarishlarga ham ta‘sir ko‘rsatmoqda. Abu Iso at-Termiziy keltirgan hadisda: “Bir- biringizning orangizni buzmag, bir – biringizni orqangizdan ayb qidirmang, bir –biringizni yomon ko‘rmang, bir-biringizga hasad qilmang”³¹ -deb insonlarning o‘zaro mehr–shafqatli bo‘lishga targ‘ib qilinadi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib bizningcha, diniylik va dunyoviylik uyg‘unlikni namoyon bo‘lishi insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida kun tartibida bo‘lib kelgan. Dunyoviylik dinnig ijtimoiy mavqeini rad etmaydi, diniylik esa diniy rituallarsiz ijtimoiy tuzumning dunyoviy modeliga o‘tishdir. Jamiyat barqarorligini muhim omili sifatida diniylik va dunyoviylik o‘rtasidagi mantiqiy muvozanatga erishish hamda uni saqlab turishning asosiy shartlaridan biridir. Dunyoviylik ateizmni yoki dinsizlikni ham anglatmaydi. Dunyoviylik mohiyatini davlatning diniy tashkilotdan hamda diniy tashkilotning davlatdan ajratilgani, shuningdek, vijdon erkinligi va e‘tiqod erkinligining mavjudligi tashkil etadi.

Yoshlar faoliyatida transformatsiyasining diniylik va dunyoviylik tamoyillaridagi o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olib, jamiyatga tadbiq qilish fanlararo yondashuvga asoslanishi lozim. Olib borilgan tadqiqot natijalari va xulosalaridan diniy va dunyoviy madaniyat uyg‘unligi haqida turli nazariyalar mavjudligiga guvohi bo‘ldik. Bu nazariyalar madaniyatlar, diniy mazmunlar va insonlar o‘rtasidagi aloqalarni, ta’sirlarni va o‘zgarmaslik omillarini tushuntirishda yordam beradi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Jamiyatda diniy va dunyoviy madaniyat uyg‘unligi transformatsiyasidagi zamonaviy tendensiyalar**” deb nomlanadi. Ushbu bobda ijtimoiy-ma’rifiy jarayonlar dialektikasida diniy va dunyoviy

³⁰ Исакова З.Р. Ирфон ва унинг Шарқ фалсафий тафаккури ривождаги ўрни (X-XIII АСРЛАР) 09.00.03 – Фал.фан.доктори (DSc). дисс.автореф. Самарканд – 2022. – Б. 12

³¹ А. Мансуров, У. Жўраев, М. Лафасов, Хадис илми сабоқлари. – Тошкент: “Ғ.Ғулом” нашриёти, 1999, –Б. 22. (64 б.)

qadriyatlarning o'zni hamda ijtimoiy davlatda diniy ta'lim va vijdon erkinligini ta'minlashning ilmiy-konseptual tahlili tadqiq etilgan. Jamiyatda diniy va dunyoviy madaniyat uyg'unligi transformatsiyasidagi zamonaviy tendensiyalar o'zgaruvchan bo'lib ijtimoiy-gumanitar tadqiqotlarning dolzarb mavzularidan biridir. Jamiyatda diniy va dunyoviy madaniyatlar o'rtasidagi pluralizm va tolerantlikning o'sishi. Texnologiyalar va kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi o'zaro munosabatlarni oshiradi va dunyoviy madaniyatlar orasidagi o'zgarishlarni yangi bosqichga olib chiqadi.

Diniy qadriyatlar azal azaldan insonni bevosita amal qiladigan ijtimoiy xususiyatlarga ega amallardir. Dinning erkinligi, uning shaxsiy manfaatlarga, g'ayriinsoniy tamoyillarga asoslanmagani davlat qonuni bilan ham ko'rsatib o'tilgan. Din va davlat institutlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning muhim yo'nalishlaridan biri bu an'anaviy oilaviy qadriyatlarni shakllantirishdir. Aynan oilada yosh shaxsning asosiy qadriyatlari shakllanadi, ularni o'zlashtirib, o'z mamlakatining faol fuqarosiga aylanadi.

Tadqiqotchi S.Saidovanning fikricha, diniy qadriyatlarning mazmun-mohiyati, uning turli yoshlar ijtimoiy-siyosiy tafakkuriga ta'siri to'g'risidagi nazariy qarashlar tahlilini umumlashtirgan holda ma'rifatli diniy qadriyatlar o'zida tolerantlik, ma'lum urf-odatlar tizimi, hayot tarzi va ijtimoiy dunyoqarash kabi aksiologik omillarni qamrab olgan kognitiv paradigma bo'lib xizmat qiladi. U bugungi kunda, aqidaparastlikdan, yagona fikrni mutlaqlashtirishdan voz kechishni anglatadigan va inson huquqlari sohasidagi umume'tirof etilgan xalqaro tamoyillariga asoslanishi bilan siyosiy fenomen tusini oladi³².

Falsafa qomusiy lug'atida qadriyat kategoriyasiga insoniyatning ma'naviy taraqqiyoti yo'lida erishgan muhim yutug'i sifatida baholandi. Qadriyatlar umumbashariy, mintaqaviy, milliy va shaxsiy qadriyatlarga bo'linadi. Qadriyatlar ijtimoiy taraqqiyot mahsuli sifatida o'z tarixiy ildizi, rivoji, vorisiylik jihatlariga ega tushuncha sifatida ijtimoiy hodisa sanaladi³³.

Bizningcha, diniy qadriyatlar – bu diniy e'tiqodlar, amaliyotlar va axloqiy me'yorlarni o'z ichiga oluvchi ijtimoiy va madaniy asoslardir. Diniy qadriyatlar shaxsiy va ijtimoiy hayotda muhim rol o'ynaydi, shuningdek, odamlar o'rtasida munosabatlarni va madaniy an'analarni shakllantiradi.

Diniy e'tiqod dinga ishonuvchi kishilar ruhiyati, intellektual hissiy va irodasiga mansub ma'naviy mazmundagi elementlarini o'ziga qamrab oladi. Ilmiy qadriyatlar bo'lsa, insonlarning bilish faoliyati natijasidagi tasavvurlari, dunyoqarashi va ilmiy tafakkuri asosida shakllanadi va narsa va hodisalar mohiyatini bilish, haqiqatni anglashga undaydi. Natijada ilmiy qadriyatlar kishilarni ilmiy faoliyatni vorisiylik asosida olib borish, tartibga solish va davom ettirishga imkon yaratadi. Ilmiy va diniy qadriyatlarning bir-biriga ta'siri va o'tishi natijasida ilmiy yangiliklar yoki ma'lum bir davrlarda ilmiy inqiloblar sodir bo'lganligini kuzatish mumkin. Umuman olganda, ilmiy va diniy qadriyatlar transformatsiyasi orqali yangicha qadriyatlar tizimi va bahoni yaratish yangi

³² Saidova S.A. O'zbekiston yoshlarining ijtimoiy-siyosiy hayotida din omilining ta'siri. Siyosiy fanlar doktori (DSc) diss. avtoref. –Toshkent; 2024. – 61 b.;

³³ Фалсафа қомусий луғат. –Тошкент: Шарқ 2004. –Б. 476.

taraqqiyot bosqichida jamiyatning barqaror rivojlanishi garoviga aylanadi. Shuning uchun ham "...insoniy fazilatlarning aksariyat qismi bilimdonlikka bog'liq, bilimdonlik esa ma'rifatga borib taqaladi"³⁴. Zamonaviy jamiyatda din tobora individuallashib bormoqda, har kim din va e'tiqod masalasi individual ahamiyat kasb etib, idrok va ta'savvur etadi. Jamiyatda dinning kompensatorlik, kommunikativlik, regulativ va integrativ funksialari qay darajada mazmun-mohiyatini tushunib, amaliy ifodasini topgan jamiyatlar ijtimoiy taraqqiyot va barqarorlikni ta'minlashiga guvoh bo'ldik. Albatta jamiyatning asosiy sotsial qatlami bo'lgan yoshlar faoliyatida butun jamiyatga xos bo'lgan fuqarolik qadriyatlariga asoslanadi.

Tadqiqotda global internet tarmog'ida turli millatlar va qardosh millatlar o'rtasida etnik kelishmovchilik va diniy nizolarni keltirib chiqaruvchi g'arazli shaxslar hamda tashkilotlar soni ortib borib, yuzaga kelgan salbiy voqeliklar o'rganldi. Ushbu holatda O'zbekistonning pozitsiyasi aniq bo'lib, jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilmoqda. Bu bayonotni siyosatshunoslar ham qo'llab-quvvatlamog'da. Ko'pmillatli aholisi bo'lgan davlatimizda millatlar birligi, tinchligi shunchaki shior emas balki, amalda mushtaraklini ifoda etib kelmoqda. O'ziga xos milliy va diniy qadriyatlariga ega va bir tom ostida yashayotgan fuqarolarning birdamligi ijtimoiy konsolidatsiyani taminlashning nafaqat huquqiy asoslari rivojlangan balki falsafiy ijtimoiy mexanizmlari ishlab chiqilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident Farmoniga muvofiq ko'p asrlik milliy va diniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, dunyo ilmfani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan ajdodlarimizning bebaho merosini o'rganish, uning asosida yoshlarni komil inson etib tarbiyalash maqsadida:

- "jaholatga qarshi ma'rifat" ulug'vor g'oya asosida dinning asl insonparvarlik mohiyatini, ezgulik, tinchlik va insoniylik kabi fazilatlar azaliy qadriyatlarimiz ifodasi ekanligini keng yoritish;

- islom va jahon sivilizatsiyasiga bebaho hissa qo'shgan ajdodlarimizning boy madaniy merosini chuqur o'rganish asosida yoshlarning ongu tafakkurini shakllantirish;

- jamiyatda milliy va diniy qadriyatlarimizga yot bo'lgan g'oyalarga nisbatan toqatsizlik muhitini shakllantirish;

- diniy va dunyoviy bilimlar uyg'unligini rivojlantirish asosida ta'lim sifatini oshirish kabilar sohaning ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilandi³⁵.

Din va dunyoviy madaniyat bo'linishiga emas, birdamlik g'oyasiga e'tibor qaratishimiz kerak. O'zbekistonning bugungi ochiqlik, shaffoflik sharoitida turli barqaror rivojlanishiga xalaqit beruvchi omillarni zararsizlantirishga, neytrallashtirishga qaratilgan tadbirlarni ham talab etadi. Mediamaydonda turli saytlar va bloglar orqali soxta salafiylarning asossiz da'volariga ishonib, yoshlar orasida tushunmovchiliklar, ixtiloflar va tashvishlar keltirib chiqarmoqda.

³⁴ Шарифхужаев М., Давронов З. Маънавият асослари. – Тошкент: Молия институти. 2005. –Б. 25.

³⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 2018-yil 16-aprel

Dinning inson tarbiyasidagi o'rne va rolini kuchaytirishga bo'lgan e'tibor oshirildi. Islom dini ma'rifatiga tayanish, uning insonparvarlik mazmunidan keng foydalanish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Diniy idora vakillarining mamlakatimizda amalga oshirilib kelinayotgan islohotlar va ma'naviy yangilanish jaroyonlariga keng jalb etishi ta'minlandi. Samarqandda – Imom Buxoriy ilmiy markazida hadisshunoslik, Imom Moturidiy markazi qoshida kalom ilmi, Farg'onada – Marg'inoniy ilmiy markazida islom huquqi maktabi, Buxoroda Bahouddin Naqshband markazida tasavvuf, Qashqadaryoda – Abu Muin Nasafiy markazida aqida maktabi faoliyat yurita boshladi. Diniy va dunyoviy madaniyat ta'lim va ijtimoiy munosabatlarni uyg'unlashtirish ijtimoiy davlatning muhim omili sifatida ko'rishimiz mumkin.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi, **“Globallashuv davrida yoshlar diniy va dunyoviy madaniyat uyg'unligini yuksaltirish omillari hamda shart-sharoitlari”** deb nomlanadi. Mazkur bobda diniy va dunyoviy madaniyat dialektikasining shaxs, jamiyat va davlatning milliy xavfsizligini ta'minlashdagi o'rne va zamonaviy O'zbek jamiyatida yoshlarining diniy va dunyoviy ma'rifat tuyg'usi hamda uning ijtimoiy-madaniy hayotidagi praksiologik xususiyatlari tadqiq etiladi.

Globallashuv davrida yoshlar diniy va dunyoviy madaniyatlar o'rtasida muvozanatni saqlash va o'zlarining identifikatsiyasini aniqlashda qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Yoshlar turli madaniyatlar bilan tanishishadi, bu esa ularning dunyoqarashini kengaytirmoqda shu bilan birgalikda diniy va dunyoviy qadriyatlar o'rtasida tanlov qilishda qiyinchiliklar, turli ijtimoiy konfliktlarni yuzaga keltiradi.

Bizningcha dialektika - bu muammo va uning yechimini topish uchun ishlatiladigan mantiqiy usul. Bu usulda muammo turli burchaklardan ko'rib chiqiladi va uning echimini topish uchun turli yondashuvlar qo'llaniladi.

Insoniyat tarixida shunday paytlar bo'lganki, davlat o'z kuchini dindan olib, uni himoya qilish uchun o'ta qattiq choralar ko'rgan, davlat dinni o'z nazoratida ushlab turgan, eng yomoni, dunyoviy jamiyat o'rnatgan paytlar ham bo'lgan. Insoniyat tarixida din va davlat o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi mexanizmlar mavjud bo'lgan. Avvalo, dunyoviylik demokratik, huquqiy va ijtimoiy davlat tuzumining din fenomeni bilan munosabatlarini tartibga soluvchi tamoyildir. Biz sekulyarizm atamasini dunyoviy deb ishlatamiz. Bu tushunchaning kelib chiqishini tahlil qiladigan bo'lsangiz, leksika nuqtai nazaridan “dinsiz shaxs”, “dinsiz narsa”, “diniy bo'lmagan fikr”, “diniy bo'lmagan muassasa”, “diniy bo'lmagan tizim”, “diniy bo'lmagan pozisiya” va boshqalar. ma'nolari. Xristianlar orasida, xususan, katoliklar “dinsizlar, ya'ni asketlar, papalardan tashqari umuman dunyoviy xristianlar” deb ataydilar. Shu asosda dunyoviy huquq deganda maqsad, dinga asoslanmagan qonun, dunyoviy davlat deganda diniy e'tiqodga asoslanmagan davlat tushuniladi.

Din iymon orqali dunyo va oxiratni tartibga soluvchi ilohiy muassasa bo'lib, u ijtimoiy-psixologik, ontologik asos bo'lib, insonga ma'lum darajada shaxsiyat va ongida mas'uliyat hissini beradi. Madaniyatning mohiyatini qo'llab-quvvatlovchi qadriyatlar tizimi asosan dinga asoslanadi. O'zbek xalqi

madaniyatining mohiyati islom dinidir. Davlat ham asos solgan madaniyat va milliylikka ega. Bu madaniyat huquq egasidir. Itoat, itoat, hurmat, qonunga hurmat psixologiyasi esa shaxsga, eng avvalo, davlat oldidagi huquq egasiga hurmatdan boshlanadi. Jamiyatda “din va an’ana” iborasi ko‘p qo‘llaniladi. Biroq udumlar va shariat (din va an’ana) iborasini rus mustamlakachilari va sharqshunoslari o‘z manfaati uchun ishlatgan. Natijada mazmun shu darajada o‘zgartirildiki, u hozirgi o‘zbek xalqi madaniyati va islom dinining rivojlanishiga hissa qo‘sha olmadi. Shunday ekan, milliy o‘zlikni tiklash uchun “din va an’ana” iborasi o‘rniga “din va madaniyat” (milliy madaniyat) iborasini qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Bu ilmiy bilish nuqtai nazaridan ham g‘oyaga, ham tamoyilga mos keladigan pozisiyadir. Bu mamlakatda diniy-ma’naviy qadriyatlarning tiklanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

1-rasm.

Diniy madaniyat	Dunyoviy madaniyat	Dialektik munosabatlar
Diniy qadriyatlar. Diniy madaniyat insoniyatning ma’naviy, axloqiy va ruhiy hayotini shakllantiradi. U insonlarga hayotning ma’nosini, olamning kelib chiqishini va o‘limdan keyingi hayotni tushunishga yordam beradi.	Ilm-fan va texnologiya. Dunyoviy madaniyat ilm-fan va texnologiyaning rivojlanishiga asoslangan. U insonlarga olamni tushunish, yangi bilimlarni kashf etish va hayotni yaxshilashga imkon beradi.	To‘qnashuvlar. Diniy va dunyoviy madaniyat o‘rtasida doimo to‘qnashuvlar bo‘lib turadi. Bu to‘qnashuvlar dunyoqarash, qadriyatlar va hayot tarzi farqlari tufayli yuzaga keladi.
An’analar va marosimlar. Diniy madaniyatda an’analar va marosimlar muhim o‘rin tutadi. Ular insonlarni birlashtiradi, ularning tarixiy va madaniy merosini saqlab qoladi va ularning ruhiy hayotini boyitadi.	Individualizm va erkinlik. Dunyoviy madaniyat individualizm va erkinlikni ta’kidlaydi. U insonlarga o‘z hayotlarini o‘zlari tanlash, o‘z qarorlarini qabul qilish va o‘z qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon beradi.	O‘zaro boyitish. Diniy va dunyoviy madaniyat bir-birini boyitadi. Diniy madaniyat dunyoviy madaniyatga axloqiy qoidalarni, jamoatchilikni birlashtirish va ruhiy qadriyatlarni beradi. Dunyoviy madaniyat diniy madaniyatga ilm-fan va texnologiya, individualizm va ijtimoiy taraqqiyotni beradi.
Ijtimoiy rol. Diniy madaniyat jamiyatda muhim ijtimoiy rol o‘ynaydi. U insonlarga axloqiy qoidalarni belgilaydi, jamoatchilikni birlashtiradi va ijtimoiy yordam ko‘rsatishni ta’minlaydi.	Ijtimoiy taraqqiyot. Dunyoviy madaniyat ijtimoiy taraqqiyotni maqsad qilib oladi. U insonlarga o‘z hayotlarini yaxshilash, kambag‘allikni kamaytirish va jamiyatni rivojlantirishga imkon beradi.	Kelishuv va hamkorlik. Diniy va dunyoviy madaniyat o‘rtasida kelishuv va hamkorlik mumkin. Bu kelishuvlar insoniyatning umumiy qadriyatlari, masalan, tinchlik, adolat va xayrixohlik asosida qurilishi mumkin.


1.1. rasm. Diniy va dunyoviy madaniyat dialektikasining ijtimoiy falsafiy omillar orqali shakllanishiga asos bo‘luvchi me’zonlar³⁶.

Yangilangan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyada “dunyoviy davlat” iborasi Taraqqiyot va rivojlanish tarafdori bo‘lgan O‘zbekistonning dunyoviy mamlakat maqomini saqlab qolish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Oldingi konstitutsiyada ham din va davlat ajratilgani belgilab qo‘yilgandi. Konstitutsiyaga sharhning namunasida dunyoviylik deganda, qonunlar ustuvorligi ta’minlanadigan, din va davlat bir-biridan ajratilgan ekani aytilgan. Bu albatta “dinni rad etadi” degani emas, vijdon erkinligi ta’minlanishining o‘zi dunyoviylik, faqat hozirgi

³⁶ Mazkur chizma nazariy tahlillar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

konstitutsiyasida aniq termin sifatida kiritildi. Diniy birlashmalar davlat boshqaruviga, mamlakatning siyosiy hayotiga aralashmaydi, ammo ularning faoliyati qonunga bo'ysunadi. Dunyoviy davlat fuqarolari har qanday konfessiyaning tarafdori bo'lish yoki umuman hech qanday dinga amal qilmaslik huquqiga ega. O'zbekiston - din davlatdan ajratilgan, ammo jamiyat hayotidan ajralmagan dunyoviy davlat. O'zbekiston kabi qadimiy ma'naviy va diniy an'analarga ega bo'lgan mamlakatda dinga munosabat masalasi jiddiy va hushyor yondashuvni talab qiladi. Dunyoviy davlatning afzalliklarini ko'p millatli va ko'p konfessiyali mamlakatlarda milliy, diniy va boshqa sabablarga ko'ra u yoki bu guruh yoki guruh vakillariga ustunlik berilmasligi bilan ko'rish mumkin.

2-rasm.



1.2. rasm. Diniy va dunyoviy madaniyat dialektikasi³⁷.

Diniy va dunyoviy madaniyatlarning dialektikasi shaxs, jamiyat va davlatning milliy xavfsizligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi, chunki ularning uyg'unligi va birligi ijtimoiy barqarorlikni, tinchlikni va xavfsizlikni ta'minlaydi.

Bugungi kunda "millat" va "millatlararo munosabatlar" tushunchalarining mazmun-mohiyatiga oid xilma-xil ta'riflar keltirib o'tilgan³⁸. Buning asosiy sababi esa mazkur tushunchalarning ijtimoiy-falsafiy munosabatlar tizimida muhim ahamiyat kasb etishi va serqirraligidadir. Jumladan, falsafa qomusiy lug'atida, "millat – til, ma'naviyat, milliy o'zlikni anglash ruhiyati yagonaligi asosida muayyan hududda yashovchi ijtimoiy aloqalar bilan bog'langan mustaqil subyekt sifatida o'ziga xos moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratuvchi kishilarning etnik birligi"³⁹ sifatida ta'riflangan. Millat ma'lum hududda barqaror yashab, tarixiy taraqqiyot davomida rivojlanib, kishilarning ma'naviy-ruhiy salohiyat yagonaligi asosida shakllanadi.

³⁷ Mazkur chizma nazariy tahlillar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

³⁸ Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. –Тошкент: «Шарқ», 2001. – 464 б; Иброҳимов А, Султонов Х, Жўраев Н, Ватан туйғуси, -Тошкент: «Ўзбекистон», 1997. – 439 б.; Жабборов И. Ўзбек халқи этнографияси, -Тошкент: «Ўқитувчи», 1994. – 320 б.

³⁹ Назаров Қ. Фалсафа қомусий лугат. –Тошкент: «Шарқ», 2004. – Б. 261

Ushbu faslda dissertant din odamlarga axloqiy qoidalarini belgilaydi, bu esa ularning jamiyatda to'g'ri xulq-atvorini ta'minlashini ta'kidlagan. Bu, jamiyatda jinoyatchilikni kamaytirishga va milliy xavfsizlikni mustahkamlashga yordam beradi. Turli dinlarning madaniy qadriyatlari o'rtasidagi ziddiyatlar jamiyatda mojaro va zo'ravonlikni keltirib chiqarishi mumkin. Bu, milliy birlikni zaiflashtiradi va davlatning xavfsizligini tahdid qiladi, degan xulosaga kelgan.

Diniy qadriyatlarimizni oyoqosti qilishga urinayotgan mutaassib kimsalar hamda ekstremistik harakatlar jiddiy tashvish uyg'otmoqda. Bunday kuchlar yoshlar ongi va qalbini zabt etish maqsadida qabih yo'llardan ham foydalanmoqda. Din bayrog'i ostida talonchilik va bosqinchilik, terrorchilik va qo'poruvchilik harakatlarini sodir etayotgan, jamiyatga har tomonlama zarar yetkazayotgan bunday harakatlar yosh avlod orasida millatlararo va dinlararo adovat, millatchilik va diniy ayirmachilik kayfiyatlarining shakllanishiga zamin yaratmoqda.

Dunyoda zamonaviy aksiologiya qonuniyatlarini o'rganish bo'yicha quyidagi yo'nalishlarda: G'arb qadriyatshunosligida subyektiv faktorning o'rne, jahon dinlari aksiologiyasi, jamiyat rivoji globallasuvi aksiologiyasi, qadriyat va haqiqat masalasi, milliy boshqaruv madaniyatida aksiologik ong, jamiyat taraqqiyotida moddiy va ma'naviy qadriyatlar omili, shaxs qadriyati, ijtimoiy qadriyatlarning o'ziga xosligi, fan aksiosferasida falsafiy asoslarning o'zgarishi, zamonaviy ta'lim madaniyatidagi innovatsiyalar aksiologiyasi kabi ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Zamonaviy dunyoda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni asrab-avaylash, aksiologiya sohasidagi ma'naviy-ma'rifiy targ'ibotlarda kreativ va ta'sirchan usullarni qo'llash, aksiologik jarayonlarni muttasil ilmiy monitoring va prognozlashtirish, umuminsoniy qadriyatlar asosida millatlararo totuvlik hamda diniy bag'rikenglik fazilatlarini mustahkamlash, aksiologik jarayonlarni ilmiyamaliy jihatdan chuqur tahlil qilish tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Xulosa qilib aytganda, din va davlat munosbatlarining bir maromda, barqaror bo'lishini ta'minlash uchun yagona vosita va omil – konstitutsionallik va qonunchilikni yanada mustahkamlash va takomillashtirish zarur. Davlat va din o'rtasidagi munosabatlarning belgilanishida asosiy e'tibor qaratilgan masalalar davlatning dunyoviy tamoyillarini ta'minlash, fuqarolarning vijdon erkinligi bilan bog'liq huquq va erkinliklarini kafolatlash, diniy tashkilotlarning qonun doirasidagi faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yish hamda jamiyatda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashdan iboratdir.

XULOSA

O'zbekiston yoshlari faoliyatida diniy va dunyoviy madaniyat uyg'unligini ta'minlashning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari dissertatsiya bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijasi bo'yicha quyidagi xulosalar taqdim etiladi:

Birinchidan, Yangi O'zbekiston "Taraqqiyot strategiyasi"dagi ustuvor yo'nalishlarda ajdodlarimiz ma'naviy merosini o'rganishga bo'lgan harakatlarimizda yangicha yondashuv va yangi talablarni qo'yimoqda. O'zbekiston boshqa islom davlatlarining tajribasini takrorlamaslikka harakat qilishi kerak. Biz yangi dunyoviy xususiyatga ega, kelajak taraqqiyotimiz uchun yuksak salohiyatga

ega yosh suveren mamlakat sifatida endilikda bu masalani ilmiy platformada hal etish imkoniyatiga egamiz.

Ikkinchidan, yoshlarda pragmatik dunyoqarashni shakllantirish orqali ularning faoliyatida diniy va dunyoviy madaniyat uyg'unligini shakllantirish bilan ma'lum bir maqsadlarga yo'naltirilishi bilan qimmatli ekanligi qayd etilib o'tiladi. Shunigdek yoshlarda faoliyat, faollikning o'zi emas, balki ularning albatta determinant bo'luvchi maqsadga yo'naltirilganligi muhim. Shunday ekan, yoshlarda diniylik va dunyoviylikni shakllantirishda pragmatistik dunyoqarash asosida aniq maqsadlar asosidagi sotsiomadaniy faoliyatni shakllantirish maqsadga muvofiq.

Uchunchidan, diniy va dunyoviy madaniyat uyg'unligini ta'minlashda sharqona aksiologik qadriyatlar va evdemoniya⁴⁰dagi mehr-shafqat, muhabbat, millatlararo totuvlik, hamjihatlilik, bag'rikenglik, altruizm (insonparvarlikka xos xususiyatlar), adolatlilik, sadoqatlilik, ahllik, vatanparvarlik kabi an'analarning yoshlar faoliyatida ta'minlashning ijtimoiy-falsafiy yondashuvlar orqali tadqiq etish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Yo'rtinchidan, diniy va dunyoviy madaniyat uyg'unligi haqida turli nazariyalar mavjudligiga guvohi bo'ldik. Bu nazariyalar madaniyatlar, diniy mazmunlar va insonlar o'rtasidagi aloqalarni, ta'sirlarni va o'zgarmaslik omillarini tushuntirishda yordam beradi. Yuqoridagi nazariyalar madaniyatlar va diniy mazmunlar o'rtasidagi aloqalarni, ta'sirlarni, o'zgarmaslik va rivojlanish omillarini tushuntirishda yordam beradi. G'arbda dunyoviylikka berilgan ko'plab ta'riflar orasida dinsizlik, dushmanlik yoki dinga qarshi degan tushunchalar yo'q. Ta'riflarning ko'pligi, asosan, dunyoviylikni turlicha talqin qilish bilan bog'liq. Masalan, dunyoviylikni falsafiy jihatdan radikal mafkura sifatida ko'rsatayotganlar ham bor. Ya'ni, ta'limot har bir insonni dunyoviyalashtirish, dinni inson hayotidan olib tashlashni targ'ib qiladi. Boshqa bir ta'rifga ko'ra, dunyoviylik jamiyatda dinning davlat tomonidan nazorat qilinishidir.

Beshinchidan, Zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonida yoshlarda diniylik va dunyoviylik madaniyatini shakllantirishda diniy ta'lim, bag'rikenglik, diniy toqat, tolerantlik, tenglik, sabrlilik tushunchalarini shakllantirish va bunga amal qilishga yoshlarni jalb qilish muammosi eng dolzarb masalalardan biridir. Shu nuqtai nazardan diniylik va dunyoviylik madaniyati ijtimoiy-falsafiy kategoriya ekanligi aniqlandi.

Oltinchidan, bizningcha, diniylik va dunyoviylik uyg'unlikni namoyon bo'lishi insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida kun tartibida bo'lib kelgan. Dunyoviylik dinnig ijtimoiy mavqeini rad etmaydi, diniylik esa diniy rituallarsiz ijtimoiy tuzumning dunyoviy modeliga o'tishdir. Jamiyat barqarorligini muhim omili sifatida diniylik va dunyoviylik o'rtasidagi mantiqiy muvozanatga erishish hamda uni saqlab turishning asosiy shartlaridan biridir. Dunyoviylik ateizumni yoki dinsizlikni ham anglatmaydi. Dunyoviylik mohiyatini davlatning diniy

⁴⁰ Baxt-saodatga intilishni inson axloqiy faoliyatining mezoni hamda asosiy harakatlantiruvchi kuchi deb hisoblovchi axloqiy ta'limot.

tashkilotdan hamda diniy tashkilotning davlatdan ajratilgani, shuningdek, vijdon erkinligi va e'tiqod erkinligining mavjudligi tashkil etadi.

Yettinchidan, diniy va dunyoviy madaniyatning fenomenologik mohiyati, insonlar va jamiyatning ma'noli dunyoqarashini, tushunchalarini, amallarini va munosabatlarini o'rganishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan tushunchalar va qarashlarning to'plami sifatida tavsiflanadi. Bu mohiyat, insonlar va jamiyatning ma'noli dunyoqarashini va mavjudotga nisbatan qarashlarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi isbotlandi.

Sakkizinchidan, yoshlar faoliyatida transformatsiyasining diniylik va dunyoviylik tamoyillaridagi o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olib, jamiyatga tadbiq qilish fanlararo yondashuvga asoslanishi lozim ekanligi muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlar turli toifalarining ma'naviy-ma'rifiy faolligi asosida kishilararo ijtimoiy munosabatlarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa, yoshlarning diniy-dunyoviy madaniyat fenomeni demokratik o'zgarishlar jarayoniga ijobiy ta'sirini ilmiy asoslaydi.

To'qqizinchidan, yoshlar faoliyatida o'zgarayotgan ijtimoiy hodisalarning uzluksiz ravishda o'zgarib borishi o'zining ijobiy xarakteriga ega bo'lsada zamonaviy dunyoda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni asrab-avaylash, aksiologiya sohasidagi ma'naviy-ma'rifiy targ'ibotlarda kreativ va ta'sirchan usullarni qo'llash, aksiologik jarayonlarni muttasil ilmiy monitoring va prognozlashtirish, umuminsoniy qadriyatlar asosida millatlararo totuvlik hamda diniy bag'rikenglik fazilatlarini mustahkamlash, aksiologik jarayonlarni ilmiy-amaliy jihatdan chuqur tahlil qilish tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Tadqiqot ishi doirasida quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

Dissertatsiya natijalariga asoslanib, quyidagi tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

Globallashuv va ijtimoiy transformatsiyalashuvning yoshlar faoliyatida diniy va dunyoviy madaniyat uyg'unligini ta'minlashga doir konseptual yondashuvlardan kelib chiqib **“Yoshlar faoliyatida diniy va dunyoviy madaniyat fenomeni”** konsepsiyasini ishlab chiqish;

Yoshlar tashkilotlari va ta'lim muassasalarida diniy Qo'mita hamda unig ta'sarufidagi tashkilotlar bilan hamkorlikda diniy va dunyoviy madaniyatni integratsiyasini oshirish maqsadida **“tahlil markazlari”, “Maslahat”(diniy mavzudagi savollar)** kabi markazlar faoliyatini yo'lga qo'yish;

Yoshlar faoliyatida diniylik va dunyoviylik madaniyatini targ'ib etuvchi **“online diniy qadriyatlar”** nomida radio eshittirishlarni tayyorlash;

Yoshlar faoliyatida **“Biz bir bo'lsak - yagona xalqmiz, birlashsak - Vatanmiz”** siyosiy-falsafiy g'oyani millatlararo hamjihatlik, birdamlik, tarixiy-madaniy birlik sifatida bosh go'ya sifatida tar'gibotiga ba'g'ishlangan konferensiyalar tashkil etish.

E'LON QILINGAN ISHLAR RO'YXATI
СПИСОК ОПУБЛИКОВАННЫХ РАБОТ
LIST OF PUBLICATIONS

I bo'lim (I часть; I part)

1. **Abdullayev A.A.** O'zbekiston yoshlari faoliyatida diniy va dunyoviy madaniyat uyg'unligini ta'minlashning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari // O'zbekiston milliy universiteti xabarлари, 2024, [1/2/]. ISSN 2181-7324. –B. 33-35. (09.00.00. № 14).

2. **Abdullayev A.A.** Globallashuv davrida diniy va dunyoviy madaniyat uyg'unligini ta'minlashning nazariy-metodologik muammolari // O'zbekiston milliy universiteti xabarлари, 2024, [1/8/]. ISSN 2181-7324. –B. 35-37. (09.00.00. № 14).

3. **Abdullayev A.A.** Diniy va dunyoviy madaniyatning tarixiy genezisi va uning namoyon bo'lish xususiyatlari // NamDU ilmiy axborotnomasi. 2024-yil 9-son. –B. 343-347. (09.00.00. № 24).

4. **Abdullayev A.A.** Zamonaviy jamiyatda diniy va dunyoviy madaniyatlar o'rtasidagi munosabatlarning nazariy asoslari // Oriental Journal of History, Politics and Law (Sharq tarixi, siyosati va huquqi jurnali). ISSN: 2181-2780. –B. 237-243. (09.00.00. OAK Rayosatining 08.05.2024 dagi № 354/5) qarori).

5. **Abdullayev A.A.** The role of religious and secular aspects in shaping the cultural landscape of youth // International Journal of Advance Scientific Research. (ISSN – 2750-1396), Volume 03, Issue 12. Pages: 432-437. (№ (14) ResearchBib, № (35) CrossRef).

6. **Abdullayev A.A.** Identification of factors affecting the harmony of religious and secular cultures among young people // International Journal of Pedagogics. (ISSN – 2771-2281). Volume 03, Issue 12. Pages: 229-233. (№ (14) ResearchBib, № (35) CrossRef).

7. **Abdullayev A.A.** Yoshlar faoliyatida diniy va dunyoviy madaniyat uyg'unligini ta'minlashning ijtimoiy ahamiyati // Yangi O'zbekiston; fan, ta'lim va innovatsiya. Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to'plami – Jizzax: O'zMU Jizzax filiali, 2024-yil 9-10 aprel. 789-bet. -B. 283-286.

8. **Abdullayev A.A.** Global o'zgarishlar sharoitida diniy va dunyoviy madaniyatning o'ziga xosligi, uning ijtimoiy ahamiyati // "Inson qadri: tarixiylik va zamonaviylikning ilmiy-nazariy talqinlari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. NamDPI, Namangan – 2024. -B. 334-338.

9. **Abdullayev A.A.** Features of the combination of religious and secular cultures in the context of uzbek youth. SCIENCE, INNOVATION, EDUCATION VITAL ISSUES OF THE XXI CENTURY. Published Date: - 10-11-2023. Pages: - 115-117. <https://nextscientists.com/index.php/science-conf/issue/view/12>

II бўлим (II часть; part II)

1. **Abdullayev A.A.** Jamiyatda diniy va dunyoviy madaniyat uygʻunligi transformatsiyasidagi zamonaviy tendensiyalar // Oriental Journal of History, Politics and Law (Sharq tarixi, siyosati va huquqi jurnali). ISSN: 2181-2780. –B. 124-131. (09.00.00. OAK Rayosatining 08.05.2024 dagi № 354/5) qarori).

2. **Abdullayev A.A.** Analysis of the interrelationship of religious and secular cultures in a historical context // INNOVATION JUNCTION: COLLABORATIVE SOLUTIONS AT THE INTERSECT Published: January 30, 2024. Pages: 44-46. Doi:- <https://doi.org/10.37547/iscrc-intconf33>.

3. **Abdullayev A.A.** Diniy va dunyoviy sohalarda totuvlikka taʼsir etuvchi omillarni aniqlash // Yangi Oʻzbekiston; fan, taʼlim va innovatsiya. Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari toʻplami – Jizzax: OʻzMU Jizzax filiali, 2024-yil 9-10 aprel. 789-bet. –B. 286-288.

4. **Abdullayev A.A.** Globallashuv sharoitida diniy va dunyoviy madaniyatning oʻziga xosligi // Тараққиёт тадқиқотлари: илмий-амалий анжуманлар материаллари тўплами. Vol. 2 No. 20 (2024). Published August 1, 2024. – B. 6-10 <https://inashr.uz/index.php/rid/article/view/695/674>.

Avtoreferat Namangan davlat universitetining
«NamDU Ilmiy Axborotnomasi» jurnalida
«___»_____ 2025-yil tahrirdan o‘tkazilgan.

Bosishga ruxsat etildi: _____ 2025-yil.
Bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$, «Times New Roman» garniturasida.
Shartli bosma tabog‘i 3. Adadi: 50. Buyurtma: № 15/07-1.
Namangan shahar Hamroh ko‘chasi 71^A-uy.
«Yashin sanoat» bosmaxonasida chop etildi.